BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SAYFULLAYEVA MADINA ISMATOVNA

QURILISH INDUSTRIYASIDA KORPORATIV MENEJMENTNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

IQTISODIYOT fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi
A V T O R E F E R A T I

Buxoro – 2025

UDK: 33:332.83:005

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SAYFULLAYEVA MADINA ISMATOVNA

QURILISH INDUSTRIYASIDA KORPORATIV MENEJMENTNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

IQTISODIYOT fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi
A V T O R E F E R A T I

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt3113 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xairova Dinara Rimovna** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xamidulin Mixail Borisovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Jo'rayev Abror Turobovich iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/27.09.2024.I.72.05 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "17" iyul soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.:(99865)221-29-14, (998 65) 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (687 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.:(99865) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "23" iyun kuni tarqatildi.

(2025yil "23" iyun dagi 21 -raqamli reyestr bayonnomasi).

O.X. Xamidov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori., professor

D.Sh. Yavmutov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

N.B. Navruz-Zoda
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik kengash ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Qurilish sanoati milliy va jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, bu o‘z navbatida boshqaruv mexanizmlari masalalarini chuqur o‘rganishni taqozo etadi. “Statista” global ma’lumotlar va biznes-analitika platformasining “Global Construction” hisobotiga ko‘ra, qurilish sektoriga investitsiya qilingan har bir pul birligi mamlakat yalpi ichki mahsulot pul birligini 2,5–3 barobarga oshiradi. Qolaversa, qurilishda yaratilgan har bir ish o‘rni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida 5-6 ish o‘rni yaratmoqda[1]. Shu munosabat bilan qurilish sohasida korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘llari, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun uni yanada barqaror rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda global o‘zgarishlar fonida korporativ munosabatlar sohasida ilmiy tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Buning sababi shundaki, bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun asosiy vazifa barqaror iqtisodiy o‘sish bo‘lib qolmoqda, bunga erishish ko‘p jihatdan korporativ boshqaruv samaradorligi bilan belgilanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, barqaror rivojlanishga e’tibor ortib bormoqda, bu esa kompaniyalarni ESG standartlari, yashil qurilish va aylanma iqtisodiyotni korporativ boshqaruv jarayonlariga joriy etishga undaydi.

Yangi O‘zbekistonda sanoatni takomillashtirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar qabul qilinishi orqali iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida qurilishni jadal rivojlantirishi “Yangi O‘zbekistonni 2022–2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi”da belgilab berilgan hukumat tomonidan “Hududlarning mutanosib rivojlanishini ta’minlagan holda viloyat iqtisodiyoti hajmini 1,4-1,6 barobarga oshirish” vazifasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishda obodonlashtirish va uy-joy qurish dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uy-joylar o‘rnida maydoni 19 million kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan zamonaviy turar-joy massivlarini barpo etish, 275 mingdan ortiq oilani yangi hududlarga ko‘chirish uchun shart-sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega[2]. Bu chora-tadbirlar O‘zbekiston va uning hududlarida qurilish industriyasini yanada rivojlantirishga har tomonlama xizmat qilib kelmoqda.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O‘RQ-370-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, 2023-yil 18-yanvardagi O‘RQ-814-sonli “Korporativ tizimni yanada takomillashtirish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlari, Prezidentning PF-37-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2024-yil 21-fevraldagi, PF-60-sonli “O‘zbekiston Respublikasini

---

[1] Global Construction – Industry Insights & Data Analysis, 2022. https://www.statista.com/study/57203/construction---global/

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son qarori.

rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi, PF-6119-sonli “O‘zbekiston Respublikasining qurilish sohasini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020-yil 27-noyabrdagi, PF-16-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi Farmonlari, Prezidentining PQ-415-sonli “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 8-noyabrdagi, PQ-4335-sonli “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 23-maydagi qarorlari va ushbu sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Korporativ menejment mexanizmlarini o‘rganishning ilmiy, nazariy va uslubiy jihatlari xorijiy mualliflar, xususan, M.Jensen, M.Mekling, D.Meyers, A.Smit, R.Mork, L.Shtayer, A.Berli, J.Minz , R.Vishni va boshqalar asarlarida ko‘rib chiqilgan[3].

Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tadqiqot predmeti sifatida MDH olimlaridan S.Masyutina, T.Pochekaylo, I.Abalkina, V.Antonova, T.Prokofiyeva, N.Goroxova, S.Kostyuchenko[4] va boshqalarning asarlarida tadqiq qilingan.

O‘zbekistonda korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining xususiyatlari va uni takomillashtirishning turli jihatlari O.Xamidov, B.Navruz-zoda, Z.Ashurov, D.Begmatova, Sh.Qurboniyozov, Sh.Zaynutdinov, D.Rahimova,

---

[3]Jensen M., Meckling W. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. 1976. Vol. 3. N 4. P. 305–360; Mayers D., Smith C.W., Jr. Contractual Provisions, Organizational Structure, and Conflict Control in Insurance Markets // Journal of Business. 1981. Vol. 54. July. N 3. P. 407–434; Smith, Adam ([1776] 1976) The Wealth of Nations (revised edn., George J. Stigler (ed.), University of Chicago Press, Chicago); Morck R. K., Steier L. The global history of corporate governance //In A History of Corporate GovernanceAround theWorld: Family Business Groups to Professional Managers. – 2005. – P. 1–64; Berle A., Means G. The Modern Corporation and Private Property. – New York: Macmillan, 1932; Р.Вишни, Роберт В. и Шлейфер А. Обзор корпоративного управления. Journal of Finance, 1997, 52 (2), pp. 737–83.

[4] Почекайло Т. Н. Формирование организационно-экономического механизма корпоративного управления: Дисс. ... канд. экон. наук: 08.00.05 Тюмень, 2006. – 169 с; Масютин С.А. Корпоративное управление: опыт и проблемы. Монография. – М.: ООО «Финстатинформ», 2003. – 201 с.; 28. Абалкин, Л.И. Хозяйственный механизм развитого социалистического общества. – М.: Мысль, 1973. – 263 с.; 33. Корпоративное управление: учебное пособие / под ред. В. Г. Антонова. – 2-е изд. перераб. и доп. – М.: ИД «ФОРУМ»: ИНФРА-М, 2010. – 288 с. – (Высшее образование); Прокофьева Т.Ю. Соотношение понятий «Экономический механизм» и «Организационно-экономический механизм» // Вестник МФЮА. 2017. №1; Горохова Н.Г. Организационно-экономический механизм управления современной корпорацией (на примере полиграфической деятельности): Дисс… канд. экон.наук. – М: МГУП им.И.Федорова. 2012. – С. 171; Костюченко С.О. Повышение устойчивости строительного комплекса на основе корпоративного управления (на примере Волгоградской области): Дисс… канд. экон.наук. – В: ГОУ ВПО «Волгоградский государственный архитектурно-строительный университет». 2006. – С. 218.

D.Suyunov, B.O‘rinov, M.Hamidullin, N.Aripxodjayeva[5] va boshqalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Biroq keng ko‘lamli tadqiqotlarga qaramay, korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining qurilish sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyasiga ta’siri hali ham yetarli darajada o‘rganilmagan, bu ushbu tadqiqot ishining mavzusini tanlashga sabab bo‘ldi. Qurilish sohasining o‘ziga xos xususiyatlarining korporativ munosabatlarga ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan, korporativ menejment sohasi korporativ boshqaruv sohasidan yetarlicha ajratilmagan, Buxoro viloyatida investitsiya va qurilish sektori dinamikasini rivojlantirish bo‘yicha prognoz parametrlari mavjud emasligi aniqlandi. Bu hodisa va ko‘rsatkichlarni o‘rganish Buxoro viloyatida qurilish industriyasini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Innovatsion menejment kafedrasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qurilish sanoati korxonalari faoliyatida korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korporativ boshqaruv va korporativ menejment tushunchalariga ilmiy-nazariy yondashuvlarini o‘rganish;

korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining mohiyati va mazmunini tadqiq etish;

qurilish sohasida korporativ menejment xususiyatlarini aniqlash;

O‘zbekiston Respublikasi qurilish industriyasining rivojlanish tendensiyalari va hozirgi holatini baholashni amalga oshirish;

Buxoro viloyati qurilish sohasida korporativ menejment mexanizmining joriy holati va xususiyatlarini tahlil qilish;

---

[5]Хамидов О.Х., Современная парадигма образования в условиях цифровой и smart-экономики // Современное образование (Узбекистан).; 2020. №4 (89). Navruzzoda B. The quality evaluation of teachers of the tourism andhospitality: a self-marketing approach //International Journal of Management Cases. – 2010. – Т. 12. – №. 2. – С. 358–368.; Ашуров З.А. Акциядорлик корхоналарида корпоратив бошқарувнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Иқтисод. фан. б. ф. доктор дисс. иши. – Т.: ТДИУ, 2019; Бегматова Д.Б. Совершенствование методов оценки эффективности корпоративного управления в акционерных обществах. Дисс...док. фил. эконом. наук. Т.: ТГЭУ, 2017; Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления: Дисс... док. экон. наук. – Т.: БФА РУз., 2008. – 256 с.; Курбаниязов Ш. Корпоратив бошқарув самарадорлигини аниқлашнинг ўзига хос хусусиятлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, 2016. №6 ноябрь-декабрь; Гулямов С.С. Правовые проблемы корпоративного управления: теория и практика. Монография. – Т.: ТГЮИ, 2004. – 271 с.; Зайнутдинов Ш.Н., Раҳимова Д.Н. Корпоратив бошқарув асослари. – Т.: Академия, 2007. – 48 б.; Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудитни такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. Икт. фан. док. дисс. автореф. – Т.: ЎзР БМА, 2008. – 34 б.; Суюнов Д.Х. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: Академия, 2006. – 116 б.; Арипходжаева Н.У. Совершенствование механизма корпоративного управления в деятельности предприятий пищевой промышленности. Автореф. дисс.док.фил.по эконом.наукам. Т.: ТГЭУ, 2024.

“Amubuxorokanalqurilish” AJ faoliyatining xususiyatlarini aniqlash va asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

qurilish industriyasi korxonalarini korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini baholash;

zamonaviy konsepsiyalardan foydalangan holda korporativ menejmentning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

“Amubuxorokanalqurilish” AJ uchun korporativ menejmentning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlarini taklif qilish;

Buxoro viloyatida qurilish va investisiya faoliyati dinamikasini ekonometrik modellashtirishni ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida “Amubuxorokanalqurilish” aksiyadorlik jamiyati olingan.

Tadqiqot predmeti qurilish industriyasi korxonalarini korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy o‘rganish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“korporativ menejment” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mas’uliyat darajasi, inson kapitali, korporativ munosabatlardagi ishtirokchilarining manfaatlari hamda korporativ menejmentning amaliy yo‘nalishiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

qurilish korxonalarini barqaror rivojlantirish uslubiyoti korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tuzilmasini barqaror rivojlanish konseptual modeliga asoslanuvchi ESG (Environmental, social & governance (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv)) tamoyillariga ustuvorlik bergan holda raqamlashgan, shaffof boshqaruv taklifi asoslangan;

korporativ maqsadlarga xodimning qiziqishi va ishtirokini oshirish yondashuvi qurilish korxonalari misolida tashkilotning barqaror rivojlanishga ko‘maklashuvida korporativ menejment iqtisodiy mexanizmini tatbiq etuvchi sxemaga asoslanuvchi PSP (Profit Sharing Plan – foydani taqsimlash rejasi) tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Buxoro viloyatida qurilish ishlari va bu jarayonlariga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi dinamikasining 2025–2029-yillar kesimida prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“korporativ menejment” tushunchasining mazmuni hamda uning “korporativ boshqaruv”dan farqlari tavsiflangan;

ESG korporativ madaniyatini shakllantiruvchi hujjat sifatida aksiyadorlik jamiyati uchun barqaror rivojlanish siyosati va ESG tamoyillari, shuningdek, “Amubuxorokanalqurilish” AJ uchun korporativ shartnomani qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tashkilotning barqaror rivojlanishining konseptual modelini ishlab chiqish orqali korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish algoritmi ishlab chiqilgan;

“Amubuxorokanalqurilish” AJda foyda taqsimoti rejasi (PSP – Profit Sharing Plan) kelishuvi mexanizmini ishlab chiqildi va undan foydalanish taklif qilingan;

Buxoro viloyatida qurilish va investitsiya faolligi dinamikasining ekonometrik modeli ishlab chiqilgan;

Buxoro viloyatida 2029-yilgacha qurilish ishlari hajmi prognoz ko‘rsatkichlari hisoblab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil qo‘llanilayotgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, rasmiy manbalardan, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlaridan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligidan olingan ma’lumotlar, shuningdek, amaliyotga tatbiq etilishi, vakolatli tuzilmalarning xulosalari va takliflarini tasdiqlash bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida muhim manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularning korporativ menejment mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, Buxoro viloyatida qurilish va investitsiya faoliyati dinamikasini baholash maqsadida qo‘llash imkoniyatlari bilan belgilanadi. Dissertatsiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalarida “Menejment”, “Korporativ boshqaruv”, “Personalni boshqarish” kabi fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqish va takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish industriyasida korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“korporativ menejment” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mas’uliyat darajasi, inson kapitali, korporativ munosabatlardagi ishtirokchilarining manfaatlari hamda korporativ menejmentning amaliy yo‘nalishiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish taklifidan “Amubuxorokanalqurilish” AJni kompleks rivojlantirish bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 24-martdagi 04-07-27-3239-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning joriy etilishi korporativ menejmentning amaliy jihatlarini aniqlash va uning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan qarashlarni takomillashtirishga hamda menejment va korporativ boshqaruv bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qildi;

qurilish korxonalarini barqaror rivojlantirish uslubiyoti korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tuzilmasini barqaror rivojlanish konseptual modeliga asoslanuvchi ESG (Environmental, social & governance (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv)) tamoyillariga ustuvorlik bergan holda raqamlashgan, shaffof boshqaruv taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi 16-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonining 4-bandi 1-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 24-martdagi 04-07-27-3239-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikni amalga oshirishning ilmiy natijalaridan foydalanish taklif etilayotgan chora-tadbirlar algoritmidan (hozirgi holatni tahlil qilish, manfaatdor tomonlar ishtiroki, strategiyani ishlab chiqish, o‘zgartirishlarni amalga oshirish, o‘qitish va xabardor qilish, monitoring va hisobot berish) foydalanish imkonini berib, bu esa qurilish tashkilotlarida korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini oshirish imkonini bergan. ESG (Environmental, social & governance) tamoyillarini amalga oshirish qurilish sohasidagi kompaniya uchun aksiyadorlik jamiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlarini 5,7% gacha oshirish imkonini berdi;

korporativ maqsadlarga xodimning qiziqishi va ishtirokini oshirish yondashuvi qurilish korxonalari misolida tashkilotning barqaror rivojlanishga ko‘maklashuvida korporativ menejment iqtisodiy mexanizmini tatbiq etuvchi sxemaga asoslanuvchi PSP (Profit sharing plan – foydani taqsimlash rejasi) tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan hamda ishlab chiqilgan takliflar “Amubuxorokanalqurilish” AJ faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 24-martdagi 04-07-27-3239-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikni joriy etish natijasida strategik rag‘batlantirish vositasi sifatida xodimlar o‘rtasida foyda taqsimotining oqilona modeli shakllantirildi, bu o‘z navbatida xodimlarning motivatsion salohiyatini shakllantirdi, korporativ maqsadlarga erishishda ishtirokini oshirdi, shuningdek, xodimlarning aylanmasini 18% ga kamaytirish imkonini berdi;

Buxoro viloyatida qurilish ishlari va bu jarayonlariga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi dinamikasining 2025–2029-yillar kesimida prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-avgustdagi “Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki ishtirokida “Buxoro viloyatining suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish (2-bosqich)” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 266-son qarorining 1-bandi v-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 24-martdagi 04-07-27-3239-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning joriy etilishi natijasida viloyatda qurilish sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan investisiyalar samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash imkoniyatiga erishildi. Xususan, ekonometrik tahlil uy-joy qurilishi hajmi va umumiy tarmoq ko‘rsatkichlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligini aniqladi: turar-joy binolarini foydalanishga topshirishning 1 foizga o‘sishi qurilish ishlari hajmining 1,03 foizga oshishiga olib kelishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 3 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, 10 ta paragraph, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat boʻlib, umumiy hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi boʻyicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining **"Qurilish sohasida korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining nazariy va uslubiy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida "korporativ boshqaruv" va "korporativ menejment" tushunchalariga ilmiy-nazariy yondashuvlar oʻrganildi, korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining mohiyati va mazmuni oʻrganildi, qurilish sohasida korporativ boshqaruvning xususiyatlari aniqlandi.

Korporativ boshqaruv mulkiy huquqlar va boshqaruv vakolatlarining ajralishi bilan tavsiflanadi, bu esa yangi subyekt – boshqaruv funksiyalarini oʻz zimmasiga oladigan yollangan menejerlarning paydo boʻlishiga olib keladi, mulkdorlar esa biznes bilan bevosita aloqani yoʻqotadi. Korporativ boʻlmagan boshqaruvda mulkchilik va boshqaruv funksiyalari birlashtiriladi va boshqaruv biznes bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan mulkdorlarning oʻzlari tomonidan amalga oshiriladi. Korporativ boshqaruvning muhim xususiyati investorlarning cheklangan javobgarligi boʻlib, ular korporatsiya majburiyatlari boʻyicha shaxsiy mulkiy javobgarlikdan himoya qiladi, korporativ boʻlmagan boshqaruvdan farqli oʻlaroq, bunday kafolatlar mavjud emas.

Koʻpincha "korporativ menejment" va "korporativ boshqaruv" atamalari, odatda, sinonim sifatida ishlatiladi, lekin ular turli ma'nolarga ega va kompaniyani boshqarishning turli jihatlarini qamrab oladi. Ixtisoslashgan adabiyotlarda "korporativ boshqaruv" va "korporativ menejment" tushunchalarini ajratishda turli yondashuvlardan foydalanish odatiy holdir.

Xorijiy mualliflar Robert Monks, I.I.Mazur, V.D.Shapiro, V.G.Antonov, shuningdek, korporativ boshqaruv boʻyicha mahalliy mutaxassis Z.A.Ashurov, ularning barchasi "korporativ menejment" va "korporativ boshqaruv" atamalarining ta'rifida farq mavjudligini ta'kidlaganlar. Korporativ boshqaruv kompaniya boshqaruvi nuqtayi nazaridan korporativ menejmentga nisbatan yuqori pog'onada joylashgan. Korporativ boshqaruv va menejmentning funksiyalari kesishishi faqat kompaniyani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda sodir bo'ladi. Shunday qilib, korporativ boshqaruv kengroq masalalarni, jumladan, turli manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni qamrab oladi, korporativ menejment esa biznes yuritishning operativ jihatlariga e'tibor qaratadi (1-rasm).



1-rasm. Korporativ boshqaruv va korporativ menejment sohalari[6]

Ushbu tadqiqot muallifining fikricha, korporativ boshqaruv chegara va qoidalarni belgilaydi, korporativ boshqaruv esa ularni amalga oshirish va kompaniya maqsadlariga erishishni ta'minlaydi. Ikkala tushuncha ham bir-biri bilan bog'liq va tashkilotning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarurdir.

Korporativ menejment – bu resurslardan samarali foydalanish, xodimlarni rag'batlantirish va kompaniyaning joriy maqsadlariga erishishga qaratilgan tezkor boshqaruv tizimi, korporativ boshqaruv esa aktsiyadorlar, boshqaruv va boshqa manfaatdor tomonlarning manfaatlari muvozanatini ta'minlaydigan strategik tartibga solish tizimidir. Mas'uliyat darajasi, inson kapitali, maqsad va vazifalarning yo'nalishi, shuningdek, vaqt ufqlari mezonlari bo'yicha atamalarni taqqoslash 1-jadvalda keltirilgan.

Kompleks va tizimli yondashuvga asoslanib, biz quyidagilarni ham aniqlashtirish zarur deb hisoblaymiz:

1. Kompleks yondashuv korporativ menejmentning barcha elementlarining (rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, nazorat qilish) tashqi va ichki omillar,

---

[6] Ashurov Z.A. Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi. Monografiya. – T.: "LESSON PRESS" nashriyoti, 2019. – 275 b.

masalan, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik sharoitlar bilan aloqasini hisobga oladi.

2. Tizimli yondashuv korporativ menejment strategik va operatsion maqsadlarga erishish uchun korporativ boshqaruv bilan oʻzaro aloqada boʻlgan kompaniyaning umumiy boshqaruv tizimining bir qismi ekanligini ta'kidlaydi.

1-jadval.

"Korporativ menejment" va "Korporativ boshqaruv" atamalarini taqqoslash[7]

Mezon	Korporativ menejment	Korporativ boshqaruv
Terminning ta'rifi	Menejmentning operatsion darajasini, shu jumladan, top-menejerlarni, boʻlim boshliqlarini va xodimlarni nazarda tutadi. Rahbariyat korporativ boshqaruv darajasida qabul qilingan strategiyani amalga oshirish uchun javobgardir.	Boshqaruvning eng yuqori darajasiga, shu jumladan, direktorlar kengashi va aksiyadorlarga tegishli. U kompaniya rivojlanishining strategik yoʻnalishlarini belgilaydi va boshqaruv faoliyatini nazorat qiladi.
Asosiy maqsad	Samaradorlik, vazifani bajarish, foyda	Manfaatlar muvozanati, barqarorlik, shaffoflik
Mas'uliyat darajasi	Operatsion (ijro darajasi)	Strategik (eng yuqori daraja)
Inson kapitali	- xodimlarni tanlash va moslashtirish; - joriy vazifalar uchun koʻnikmalarni rivojlantirish; - motivatsiya va samaradorlikni baholash; - idoraviy darajada korporativ madaniyatni shakllantirish.	-uzoq muddatli oʻqitish va martaba oʻsishi tizimini yaratish; -xodimlar va aksiyadorlar manfaatlari oʻrtasidagi muvozanatni ta'minlash; -kompaniyaning missiyasi va qadriyatlarini shakllantirish.
Ishtirokchilar	Top menejerlar, rahbarlar, xodimlar	Aksiyadorlar, direktorlar kengashi
Ishtirokchilarning manfaatlari	- Shaxsiy mukofot va martaba oʻsishi; - barqarorlik va xavfsizlik; - samaradorlik va vazifani bajarish.	- Foyda va kompaniya qiymatini maksimal darajada oshirish; - strategik rivojlanish; - nazorat va shaffoflik.
Maqsad va vazifalarga e'tibor qaratish	Qisqa va oʻrta muddatli maqsadlar	Uzoq muddatli maqsadlar
Vaqt gorizonti	Qisqa va oʻrta muddatli (bir necha oydan 3–5 yilgacha) yoʻnaltirilgan.	Uzoq muddatli (5–10 yil yoki undan koʻproq) yoʻnaltirilgan.

Mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan "mexanizm", "iqtisodiy mexanizm", "tashkiliy mexanizm", "tashkiliy-iqtisodiy mexanizm", "korporativ boshqaruv mexanizmi", "korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi", "korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi" kabi atamalar oʻrganilgan. Ilmiy adabiyotlarda tashkiliy-iqtisodiy mexanizm konsepsiyasining juda koʻp turli xil talqinlari mavjud boʻlib, bu uning aniq ta'rifi va talqinining murakkabligini koʻrsatadi.

[7] Muallif tomonidan tuzilgan.

Ko‘pincha, xorijiy tadqiqotchilar korporativ boshqaruv mexanizmlarini ichki va tashqi qismlarga bo‘lishni taklif qilishadi. Ichki mexanizm komissiyalar kengashi, ichki nazorat va ichki audit funksiyasiga asoslanadi. Tashqi mexanizm kapital bozori, korporativ nazorat bozori, mehnat bozori, davlat boshqaruvi, sud hokimiyati, aksiyadorlar va investorlar faoliyatidan kelib chiqadi. Tadqiqot davomida muallif asosiy mexanizmlarni ichki va tashqi mexanizmlarga bo‘lishda korporatsiyalarda korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan ichki va tashqi muhit elementlarining izchilligini hisobga olish kerak, degan xulosaga keldi, chunki bu korporatsiyaning samarali faoliyatining asosiy omilidir.

Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi boshqaruv ishtirokchilari (boshqaruvchi va boshqariladigan quyi tizimlar) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning murakkab tizimi bo‘lib, ishtirokchilar tomonidan qo‘yilgan maqsadlar va resurslar cheklovlarini, shuningdek, iqtisodiy natijalarni baholash uchun ko‘rsatkichlar majmuini belgilab beradi. Shu bilan birga, mazkur mexanizm ishtirokchilarga (tizim elementlari) atrof-muhit ichida va tashqarisida samarali hamkorlik qilish imkonini beradigan qonunchilik, tashkiliy (ma’muriy) va iqtisodiy xususiyatga ega elementlar to‘plami sifatida qaraladi.

Muallif “korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi” tushunchasini “korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi” toifasidan maqsadga muvofiq ravishda ajratgan. Korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi – bu kompaniyaning operatsion faoliyatini samarali boshqarishga qaratilgan usullar, vositalar va jarayonlar to‘plami. Strategik jihatlarga yo‘naltirilgan korporativ boshqaruvdan farqli o‘laroq, korporativ menejment resurslar, jarayonlar va odamlarni boshqarish orqali strategik qarorlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Ushbu mexanizmning asosini foyda (operatsion va sof), byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish, xarajatlarni optimallashtirish, operatsion jarayonlarga investitsiyalar, xodimlar uchun kompensatsiya va mukofotlar, shuningdek, mehnat unumdorligini oshirish uchun iqtisodiy rag‘batlantirish kabi iqtisodiy usullar va vositalar tashkil etadi. Ushbu vositalar menejmentga joriy jarayonlarni samarali boshqarish va o‘z maqsadlariga erishish imkonini beradi (2-rasm).

Qurilishda korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi qurilish tashkilotining samarali faoliyati uchun asos bo‘lgan bir qator asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu elementlar qurilish kompaniyasining samarali ishlashi uchun asos bo‘lib, qurilish loyihalari o‘z maqsadlariga erishishni ta’minlaydi. Ushbu sohaning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, qurilish sanoati korxonalarida korporativ boshqaruvdagi xarakterli farqlarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

“Qurilish majmuasi” tushunchasi 1980-yillarning boshlarida paydo bo‘lib, moddiy ishlab chiqarish sohasidagi sanoat tarmoqlari va ularning qurilish mahsulotlarini yaratish bilan shug‘ullanuvchi korxonalari guruhini o‘z ichiga oladi. Ammo tez orada “qurilish majmuasi” tushunchasi o‘zaro bog‘langan tarmoqlar guruhlarini boshqarishdan iborat bo‘lgan amaliy mazmun bilan boyidi.



2-rasm. Korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi[8]

[8] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qurilish majmuasi tarkibiga ijtimoiy ishlab chiqarishning qurilish ishlab chiqarishi (pudrat va xo‘jalik usullari bilan amalga oshiriladigan), qurilish materiallari, konsrtuksiyalari, ehtiyot qismlari ishlab chiqarish, qurilish, yo‘lsozlik, mashinasozlik, asbob-uskunalarni ta’mirlash, qurilishga xizmat ko‘rsatadigan transport, moddiy-texnik ta’minot (ta’minot, asbob-uskunalar) kabi tarmoqlari va kichik tarmoqlari kiradi.Qurilish tashkilotlari va ishlab chiqarishni, shuningdek, boshqa tarmoqlar tashkilotlarini bir butunga tashkiliy jihatdan bog‘laydigan yakuniy natijadir. Qurilishda kompleks boshqaruv yakuniy mahsulot nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Sanoatni o‘rganishda muallif qurilish sanoatining boshqa tarmoqlardan bir nechta o‘ziga xos xususiyatlarini (ishning jismoniy tabiati, mavsumiy bog‘liqlik, ishtirokchilarning ko‘pligi, yuqori darajadagi noaniqlik va xavf, yuqori darajadagi raqobat, katta miqdordagi jismoniy va moliyaviy resurslar, uzoq muddatli loyihalar, mehnat zichligi va malakali kadrlarga qaramlik, atrof-muhitni ifloslanish xavfi yuqori) aniqlandi. Mazkur aniqlangan o‘ziga xos xususiyatlari, o‘z navbatida, umuman qurilish industriyasi strategiyasini amalga oshirish maqsadlariga va qurilish tashkilotlarida, xususan, korporativ boshqaruv mexanizmining xususiyatlariga ta’sir qiladi.

Qurilish sohasidagi aktsiyadorlik jamiyatlarida ularning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan bir qancha asosiy muammolar mavjud:

1. *Moliyaviy beqarorlik*: qurilish, odatda, yer sotib olish, obyektlar qurish va materiallarni sotib olish uchun katta investitsiyalarni talab qiladi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslar, ayniqsa, kichik va o‘rta aktsiyadorlik jamiyatlari uchun cheklangan bo‘lishi mumkin. Bu moliyaviy beqarorlikka olib kelishi va uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirishni qiyinlashtirishi mumkin.

2. *O‘tkazib yuborilgan muddatlar va byudjetlarni qayta ishlash*: aksariyat hollarda, qurilishda kutilmagan qiyinchiliklar paydo bo‘ladi, masalan, loyihadagi o‘zgarishlar, ob-havo sharoiti, materiallar va xodimlar bilan ta’minlash bilan bog‘liq muammolar. Bu o‘tkazib yuborilgan muddatlarga va byudjetlarning ko‘payishiga olib kelishi mumkin, bu esa kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi va obro‘siga salbiy ta’sir qiladi.

3. *Innovatsion va samarali texnologiyalarning yetishmasligi*: qurilish sanoati, ko‘pincha, innovatsion texnologiyalar va boshqaruv usullarini joriy etmaslikni boshdan kechiradi, bu esa jarayonlarning eskirishiga va kompaniyalarning raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

4. *Malakali ishchilarning yetishmasligi*: qurilish sanoati muhandislar, arxitektorlar, qurilish ishchilari va loyiha menejerlari kabi yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi. Malakali kadrlarning yetishmasligi loyihalarni o‘z vaqtida bajarishni qiyinlashtirishi mumkin.

5. *Jamoatchilik fikri xavf-xatarlari va atrof-muhit muammolari*: qurilish obyektni tanlash, resurslardan foydalanish va atrof-muhitga ta’sir qilish bilan bog‘liq jamoatchilik qarshiligi va atrof-muhit muammolariga duch kelishi mumkin.

Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun qurilish sohasidagi davlat kompaniyalari boshqaruv amaliyotini takomillashtirish, innovatsiyalarni joriy etish, yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, jamoatchilik muloqotida faol ishtirok etish va atrof-muhitga mas’uliyatli qurilish amaliyotini tatbiq etishni izlashi mumkin. Bundan tashqari, sarmoyalarni jalb qilish va investorlar ishonchini oshirish uchun shaffoflik va korporativ boshqaruvni yaxshilashga intilish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishining “**Buxoro viloyatida qurilish industriyasi holati va rivojlanishining boshqaruv tahlili”** nomli ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi qurilish industriyasining rivojlanish tendensiyalari va hozirgi holati baholandi, Buxoro viloyatida qurilish industriyasini korporativ menejment mexanizmining holati va xususiyatlari tahlil qilindi, “Amubuxorokanalqurilish” korxonasi xususiyatlari va AJ faoliyatining asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi, Buxoro viloyati qurilish sanoati korxonalarini korporativ menejmentining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga baholandi.

Qurilish sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, zamonaviy boshqaruv instrumentlarga muhtoj. Shunday qilib, qurilish industriyasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal etishning asosiy omili hisoblanadi. Qurilish sanoati mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 6,7 foizni tashkil etadi.



3-rasm. 2014–2023-yillarda Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan qurilish tashkilot va korxonalar soni (birlikda)[9]

O‘zbekistonning boshqa hududlarida bo‘lgani kabi Buxoro viloyatida ham qurilish sohasi keyingi o‘n yil ichida ko‘rsatkichlarning keskin pasayishidan tortib, jadal o‘sishigacha bo‘lgan turli bosqichlarni bosib o‘tdi. Tahlillarga ko‘ra, Buxoro viloyatida qurilish industriyasi, faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish tashkilotlari va korxonalari soni 2014–2023-yillar davomida o‘rganish davrida barqaror va uzluksiz o‘sib bordi, bu ko‘rsatkich mos ravishda 1 059 birlikdan 3 004 taga o‘sdi (3-rasm).

Shu bilan birga, Buxoro viloyatida qurilish tarmog‘i korxonalarining tuzilish tarkibining mulkchilik turlari bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatdiki, asosiy ulush 91 foiz mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, shuningdek, xususiy korxonalar 7,4 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, viloyat bo‘yicha atigi 4 ta qurilish tashkiloti aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat ko‘rsatmoqda (4-rasm).

[9] Muallif tomonidan Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.



4-rasm. Buxoro viloyatidagi qurilish industriyasi korxonalarining mulkchilik turlari bo'yicha tarkibiy tuzilmasi (2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)[10]

Shu bilan birga, Buxoro viloyati bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlarining umumiy hajmi 2013-yildagi 1 279,6 milliard so'mdan 2022-yilda 8 340,4 milliard so'mgacha 6,5 barobar oshdi. Shuningdek, 2022-yilda jami ishlarning 25 foizdan ortig'i Buxoroda bajarilgan. Viloyatda qurilish va investitsiya faolligi dinamikasi 2013-yildan 2022-yilgacha o'rganilayotgan davrda keskin tebranishlarni ko'rsatmoqda. Asosiy kapitalga investitsiyalarning qisqarish davrlari o'sishning keskin sur'atlari bilan kuzatildi (5- rasm).



5-rasm. Buxoro viloyatida investitsiya va qurilish faoliyati dinamikasi (2013–2022)[11]

Viloyatda qurilish va investitsiya faolligi dinamikasi 2013-yildan 2022-yilgacha o'rganilayotgan davrda keskin tebranishlarni ko'rsatmoqda (5- rasm).

---

[10] Muallif tomonidan Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

[11] Muallif tomonidan Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning qisqarish davrlari oʻsishning keskin surʼatlari bilan kuzatildi. Masalan, 2018-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 17,2 foizga salbiy oʻsishi kuzatilgan boʻlsa, natijada 2019-yilda oʻtgan davrga nisbatan qurilish ishlari hajmi 22 foizga, turar-joy binolarini foydalanishga topshirish hajmi 1,5 foizga kamaygan.

Biroq asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining eng katta oʻsishi 2017-yilda 96,1% va 2021-yilda 68,5% boʻldi. Shuningdek, qurilish ishlari hajmining eng yuqori darajasi 2018-yilda 40,8% va 2021-yilda 30,8% ni tashkil etdi. Maksimal maydoni foydalanishga topshirilgan turar joy binolari maydoni 17,2 m^2 ni tashkil etib 54,6% ga oshdi (5-rasm).

"Amubuxorokanalqurilish" aksiyadorlik jamiyati Buxoro viloyatidagi qurilish sohasi faoliyat yuritib kelmoqda. Kompaniya suv xoʻjaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bilan shugʻullanadi.

Korxona ustaviga koʻra, "Amubuxorokanalqurilish" AJ ustav kapitali 625,159 million soʻm, bitta aksiyaning nominal qiymati 1000 soʻmni tashkil etadi. 625 159 dona oddiy aksiyalar chiqarildi. Aksiyalarga egalik qilishda davlat ulushi mavjud emas. Barcha aksiyalar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli. Oʻrganilayotgan korxonani korporativ boshqarishning tashkiliy mexanizmi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu hujjatlar samarali korporativ boshqaruv, hamda ichki va tashqi meʼyoriy talablarga rioya etilishini taʼminlash uchun asos boʻlib xizmat qiladi. 3-jadvaldagi maʼlumotlarga asoslanib, biz barqaror rivojlanish siyosatini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2-jadval

Yalpi foyda tarkibi va dinamikasi tahlili[12]

Koʻrsatkich	2017		2018		2019		2020		2021		2022		2023	
	miqdori, million soʻm	foizdagi ulushi, %	miqdori, million soʻm	foizdagi ulushi, %	miqdori, million soʻm	foizdagi ulushi, %	miqdori, million soʻm	foizdagi ulushi, %	miqdori, million soʻm	foizdagi ulushi, %	miqdori, million soʻm	foizdagi ulushi, %	miqdori, million soʻm	foizdagi ulushi, %
1.Mahsulotni sotish hajmi ®	37 124	100	36 530	100	49 471	100	68 141	100	56 274	100	63 328	100	45 320	100
2. Sotilgan mahsulot tannarxi (S)	22 862	61	25 470	70	37 841	76	59 401	87	47 612	85	53 100	84	38 959	86
3. Yalpi foyda (P)	14 261	39	11 059	30	11 630	24	8 740	13	8 661	15	10 227	16	6 361	14

Korxona faoliyatining asosiy koʻrsatkichlaridan biri mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda hisoblanadi. "Amubuxorokanalqurilish" AJ yalpi foyda

[12] Jadval muallif tomonidan "Amubuxorokanalqurilish" AJning 2017–2023-yillar uchun moliyaviy hisobotlari asosida tuzilgan.

ko‘rsatkichlari darajasi va dinamikasini baholash uchun 2-jadval tuzilgan bo‘lib, ma’lumotlar tahlili 2017-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda yalpi foydaning mos ravishda 14 261 million so‘mdan 6 361 million so‘mga kamayganligidan dalolat beradi. Bu ko‘rsatkichda har yili pasayish kuzatilmoqda. Turli xil tendensiyani ko‘rsatuvchi sotilgan mahsulot tannarxining darajasi yildan yilga oshib, 2017-yildagi 22 862 million so‘mdan 2023-yilda 38 959 million so‘mga yetdi. Binobarin, oldingi yalpi foydadan chetga chiqishga sotilgan mahsulot tannarxidagi o‘zgarishlar ta’sir ko‘rsatdi.

3-jadval

“Amubuxorokanalqurilish” AJning ichki hujjatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar[13]

№	Korporativ normativ-huquqiy hujjatlar nomi	**Holat** (mavjud yoki mavjud emas)
1.	Nizom	mavjud
2.	Korporativ boshqaruv kodeksi	mavjud
3.	Direktorlar kengashi to‘g‘risidagi nizom	mavjud
4.	Aksiyadorlar yig‘ilishi to‘g‘risidagi nizom	mavjud
5.	Barqaror rivojlanish siyosati	**mavjud emas**
6.	Axloq kodeksi	**mavjud emas**
7.	Qoidalar va ko‘rsatmalar	mavjud
8.	Korporativ shartnoma	**mavjud emas**

“Amubuxorokanalqurilish” AJning moliyaviy holati uning moliyaviy natijalarini, ya’ni foyda, rentabellik, likvidlik, pul oqimlarining barqarorligi va boshqalarni aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar kompaniyaning aktsiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qiymat yaratish va saqlab qolish qobiliyatini o‘lchaydi. Umuman olganda, tahlil bizga kompaniyaning moliyaviy kuchi, strategiyasi va nazorati, shuningdek, uning huquqiy va me’yoriy talablarga muvofiqligi haqida foydali ma’lumotlarni taqdim etdi.

Shunday qilib, “Amubuxorokanalqurilish” AJ qurilish industriyasi korxonalarining xo‘jalik-moliyaviy faoliyati korxonaning ishlab chiqarish-moliyaviy sohasini boshqarishda mavjud qiyinchiliklardan dalolat beradi. Hozirgi holatdan chiqish uchun uzoq muddatli majburiyatlar bilan bog‘liq investitsiya dasturlarini moliyalashtirish uchun mablag‘larni jalb qilish va tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar zaxiralarini optimallashtirishga intilish tavsiya etiladi.

Grafikda 2017-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda emitentning bir qator moliyaviy ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar tasvirlangan (6-rasm). Qarzning o‘z kapitaliga nisbati va umumiy to‘lov qobiliyatini qoplash nisbati nisbatan barqarorligicha qolmoqda. Shu bilan birga, mutlaq likvidlik koeffitsiyenti asta-sekin

[13] Jadval muallif tomonidan “Amubuxorokanalqurilish” AJ materiallari asosida tuzilgan.

pasayadi, bu kompaniyaning bevosita to‘lov qobiliyatining pasayishini ko‘rsatadi. Kapitalning rentabelligi koeffitsiyenti 2018-yildagi eng yuqori qiymatdan keyin pasayishni ko‘rsatadi, bu kompaniya foydasining o‘zgarishi bilan bog‘liq.



6-rasm. “Amubuxorokanalqurilish” AJning 2017–2023-yillardagi moliyaviy-iqtisodiy holati ko‘rsatkichlari[14]

Qurilish sanoatini batafsilroq va miqdoriy baholash uchun muallif PESTEL tahlil usulidan foydalangan. Buxoro viloyati qurilish industriyasining ushbu tahlil natijasida muallif 6 ta omil ta’sirida sohada kutilayotgan o‘zgarishlarni taqdim etdi. Shuni hisobga olish kerakki, mazkur tahlil zamonaviy sharoitlarda dolzarb bo‘lgan ESG mezonlarini baholashni o‘z ichiga oladi.

Viloyat qurilish industriyasi tashkilot va korxonalari davlat organlari va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bilan hamkorlikda qurilish industriyasining ekologik vaziyatni o‘zgartirish va uning ekologik javobgarligini oshirish normalari, talablari va me’yorlariga rioya etishi, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarga moslashishiga ko‘maklashadi. Tadqiqot obyekti bo‘lgan “Amubuxorokanalqurilish” AJ ham bundan mustasno emas. PESTEL tahlilini o‘tkazish uchun tarkibiy bo‘linmalar va turli bo‘g‘inlar rahbarlaridan, shuningdek, kompaniyaning iqtisodiy va ishlab chiqarish bo‘limlari mutaxassislaridan 6 ta yo‘nalish bo‘yicha ekspert baholari olindi (4-jadval).

4-jadval

“Amubuxorokanalqurilish” AJ faoliyatini tahlil qilishda eng muhim PESTEL omillari[15]

---

[14] Muallif tomonidan “Amubuxorokanalqurilish” AJning 2017–2023-yillar uchun moliyaviy hisoboti asosida tuzilgan.
[15] Muallif tomonidan hisoblab chiqilgan va tuzilgan.

(P) POLITICAL – siyosiy omillar		(E) ECONOMICAL – iqtisodiy omillar	
Faktor	**Og‘irligi**	**Faktor**	**Og‘irligi**
Soliq siyosati (tariflar va imtiyozlar)	0,14	Inflyatsiya darajasi va foiz stavkalari	0,15
Sanoatni tartibga solish yoki deregulyatsiya qilish tendensiyalari	0,13	Iqtisodiy o‘sish sur’atlari	0,14
Byurokratizatsiya va korrupsiya darajasi	0,11	Mamlakatning pul-kredit va fiskal siyosati	0,12
(S) SOCIO-CULTURAL – ijtimoiy-madaniy omillar		**(T) TECHNOLOGICAL – texnologik omillar**	
Faktor	**Og‘irligi**	**Faktor**	**Og‘irligi**
Aholining o‘sish sur’ati	0,14	Sanoatdagi innovatsiyalar va texnologik rivojlanish darajasi	0,11
Migratsiya darajasi va immigratsion kayfiyatlar	0,07	Internetning rivojlanishi va kirib borishi, mobil qurilmalarning rivojlanishi	0,09
Mahsulot sifati va xizmat ko‘rsatish darajasiga qo‘yiladigan talablar	0,06	Eng yangi texnologiyalarga kirish	0,06
(L) LEGAL – huquqiy omillar		**E) ENVIRONMENTAL OR ECOLOGICAL – ekologik omillar**	
Faktor	**Og‘irligi**	**Faktor**	**Og‘irligi**
Sanoatdagi mehnat qoidalarini tartibga soluvchi kelajakdagi va amaldagi qonunchilik	0,15	Atrof-muhitni muhofaza qilish qonunchiligi	0,14
Soliq qonunchiligi	0,14	Iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar	0,14
Monopoliyaga qarshi va mehnat qonunchiligi	0,07	Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limining davlat organlari va ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bilan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida o‘zaro hamkorlik qilish	0,09

Buxoro viloyati qurilish industriyasini PESTEL tahlilida muhim omillarni aniqlash muallifga kompaniyaning sohadagi faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlash imkonini berdi. Shu asosda qurilish tashkiloti faoliyatiga tashqi muhitning salbiy ta’sirini kamaytirishga yordam beradigan taklif va tavsiyalarni yanada ishlab chiqishda xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “**Qurilish sohasida korporativ menejmentning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish**” uchinchi bobida zamonaviy konsepsiyalardan foydalangan holda korporativ menejmentining tashkiliy mexanizmini takomillashtirish, “Amubuxorokanalqurilish” AJ uchun korporativ menejmentining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, Buxoro viloyatida qurilish va investitsiya faoliyati dinamikasini ekonometrik modellashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif etildi.

